

## 16-dars. NAZORAT ISHI. LOYIHA ISHI

Loyiha ishining vazifasi o'tilgan bob bo'yicha o'zlashtirilgan mavzular mazmunini mustahkamlashdan iborat.

**Topshiriq.** Adobe Photoshop dasturida quyidagi tasvir yoki shu mazmundagi ko'rinishga ega ixtiyoriy tasvir hosil qilish.

Topshiriqni bajarish uchun qo'yiladigan asosiy shartlar:

- 1) tasvir uchun orqa fonni tanlash;
- 2) tasvirga joylashtirish uchun bir nechta obyektni tanlash;
- 3) tanlangan obyektlarni umumiy ko'rinishga birlashtirish;
- 4) namunada berilgan obyektlarga qo'shimcha sifatida ixtiyoriy obyektlarni qo'shish;
- 5) yaratilgan tasvirni png formatida „Loyiha ishi“ nomi bilan saqlash.



Darslikda berilgan tasvirni yaratish uchun foydalanish mumkin bo'lgan rasmlarni <https://dr.rtm.uz> saytidan yuklab olish mumkin.

## 17-dars. MATNLAR BILAN ISHLASH

Adobe Photoshop dasturida hujjatga matn joylashtirish, unga jozibali ko'rinish berishning turli vositalari mavjud.

Demak, Adobe Photoshop dasturida matn bilan ishslash haqida bilish kerak bo'lgan barcha amallar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishamiz.

### TAYANCH TUSHUNCHALAR

**Matn bloki** – matnlarni ma'lum shaklda kiritish mumkin bo'lgan soha.

**Kontur** – geometrik shakl yoki obyekt chegarasini anglatuvchi yopiq chiziq.

**Deformatsiya** (lot. *deformation*) so'zi „buzish“ degan ma'noni anglatadi.

### MATN KIRITISH YOKI JOYLASHTIRISH

1. Fotosurat yoki dasturda yaratilgan Photoshop hujjati (PSD) yuklanadi.
2. Uskunalar panelidan „Type Tool“ uskunasi tanlanadi yoki uskunani tezkor ishga tushirish uchun klaviaturadagi „T“ tugmachasi bosiladi.
3. Agar qisqa hajmli matn kiritiladigan bo'lsa, ishchi sohaning matn kiritiladigan joyiga sichqonchaning chap tugmachasi bir marta bosiladi. Bunday matnga *oddiy matn* deyiladi. Agar katta hajmdagi matn kiritiladigan bo'lsa, ishchi sohaning matn kiritiladigan joyiga sichqoncha chap tugmacha bosib, to'rtburchak ko'rinishida blok hosil qilinadi. Bunday blokka *matn bloki* deyiladi.